

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

6-2025
IJTIMOIY FANLAR

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

IQTISODIYOT

F.X.Rahimov, A.Muhammadiyev

Soha komponentlarining samarali integratsiyasi – innovatsion rivojlanish garovi 8

Sh.Nishonova

Investitsiya loyihalarini boshqarish jarayonining bosqichlari va investitsiya jozibadorligini baholash mexanizmlari 16

Z.M.Tojiboyev

Yashil moliya va O'zbekistonda barqaror rivojlanish: rivojlanayotgan bozorlerde ESG va yashil obligatsiyalarning roli..... 21

FALSAFA

Sh.T.Tursunkulova

Estetika tarixida go'zallik tushunchasi 25

S.S.Jabborova

Yangi O'zbekistondagi ma'naviy islohotlar ijtimoiy taraqqiyot omili sifatida..... 32

M.O'rinov

Yangi O'zbekiston tasviriy san'atida avlodlar almashinuvi fenomeni va madaniy transformatsiyalar dialektikasi 35

D.N.Tag'oyeva

Oila, nikoh masalalarining genezisi va jadidlar ma'naviy merosida mazkur masalalarning aks etishi..... 39

A.A.Mirzayev

Ibn al-Arabiyning komil inson haqidagi qarashlari..... 49

M.R.Tuxtasinov

Demokratik jamiyatda siyosiy tafakkurni rivojlantirish muammolari..... 54

G.M.Ruzmatova

Ibn Sino va Erix Fromm: ijtimoiy faollikka oid falsafiy g'oyalarining qiyosiy-tahlili..... 58

J.B.Anarbayev

Yangi O'zbekiston sharoitida inson manfaatlarini ta'minlashda institutsional hamkorlikning roli..... 62

N.A.Umirzakova

Tibbiy ta'limga bioetikaviy imperativlarni joriy etish - zamonaviy tibbiyotni optimallashtirishning usuli sifatida 66

M.R.Sodiqova

Inson qadrini ta'minlashda demokratik qadriyatlarining o'rni 70

I.T.Boltaboyev

Ijtimoiy adolatning falsafiy talqini: tarixiy va zamonaviy yondashuvlar 74

S.R.Bo'ldiyeva

Buxoro hunarmandlarining e'tiqodi va ularning hayotdagi falsafiy qarashlari 79

M.X.Baratova

Kambag'allik muammosining ijtimoiy-falsafiy talqini va uni o'rganishning metodologik asoslari 84

B.Tadjixodjayev

Davlat boshqaruvida xarizmatik shaxslar faoliyatining sotsiologik tahlili 89

A.B.G'ulomov

Ekstremizm va terrorizmga qarshi kurashishning ma'naviy-ma'rifiy tamoyillari va strategik asoslari 93

M.R.Sodiqova

Yoshlarning mafkuraviy immunitetini shakllantirishda ijtimoiy-falsafiy omillar 97

D.V.Vohidova

Xojagon tariqati va ma'rifatli jamiyatning ruhiy-ma'naviy asoslari 101

A.B.G'ulomov

Yangi O'zbekiston va fuqorolik jamiyati qurishda Farg'ona jadidchilik maktab namoyondalari ijtimoiy-falsafiy qarashlarining ahamiyati 105



UO'K: 316.42:316.7(575.1)

**YANGI O'ZBEKISTONDAGI MA'NAVIY ISLOHOTLAR IJTIMOYIY TARAQQIYOT OMILI
SIFATIDA****ДУХОВНЫЕ РЕФОРМЫ В НОВОМ УЗБЕКИСТАНЕ КАК ФАКТОР ОБЩЕСТВЕННОГО
РАЗВИТИЯ****SPIRITUAL REFORMS IN THE NEW UZBEKISTAN AS A FACTOR OF SOCIAL
DEVELOPMENT****Jabborova Saodat Sattorovna** 

Buxoro davlat pedagogika instituti, "Ijtimoiy fanlar" kafedrası dotsenti f.f.f.d., (PhD)

Annotatsiya

Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston taraqqiyotida ma'naviy sohada amalga oshirilayotgan islohotlar, ularning ahamiyati yoritilgan bo'lib, ushbu sohada erishilayotgan yutuqlar batafsil bayon etilgan. Muallif tomonidan ma'naviyat-jamiyatning ijtimoiy ong shakllarini rivojlantirish, o'z a'zolari dunyoqarashi va ma'naviy olamini yuksaltirish, ko'p asrlik ma'naviy merosni asrash va kelgusi avlodlarga etkazish, ma'naviy xavfsizlikni ta'minlash borasida qo'llanilishi mumkin bo'lgan imkoniyatlari, vositalari yig'indisi ekanligi yoritib berilgan.

Аннотация

В данной статье освещаются реформы, осуществляемые у духовной сфере в развитии нового Узбекистана, их значение а также подробно описываются достигнутые в этой области успехи. Автор подчеркивает что духовность- это совокупность возможностей, которые могут быть использованы их для развития форм общественного сознания общества, возвышения мировоззрения и духовного мира его членов, сохранения многовекового духовного наследия, о передаче его будущим поколениям для обеспечения духовной безопасности.

Abstract

In this article, spiritual potential is the development of forms of social consciousness of the society, raising the worldview and spiritual world of its members, preserving the centuries-old spiritual heritage and passing it on to future generations, ensuring spiritual security. It is explained that it is a set of possibilities and tools that can be used in this regard.

Kalit so'z: ma'naviy salohiyat, Yangi O'zbekiston, jamiyat salohiyati, iqtisodiy salohiyat, ma'naviy-ruhiy muhit, ijtimoiy salohiyat, ijodiy tafakkur, ijtimoiy taraqqiyot, milliy mafkura, madaniy meros.

Ключевые слова: духовный потенциал, Новый Узбекистан, общественный потенциал, экономический потенциал, духовно-нравственная среда, социальный потенциал, творческое мышление, социальный прогресс, национальная идеология, культурное наследие.

Key words: spiritual potential, New Uzbekistan, community potential, economic potential, spiritual and spiritual environment, social potential, creative thinking, social progress, national ideology, cultural heritage.

KIRISH

Har qanday jamiyat taraqqiyoti, uning u yoki bu vaqt va makondagi darajasi ko'p jihatdan fuqarolar ma'naviyati, turmush tarzi, kishilarning ma'naviy-moddiy, ijtimoiy ehtiyojlari hamda ularning qay darajada qondirilishiga bog'liqdir. Har bir davlatning taraqqiyoti unda olib boriladigan islohotlarning to'g'ri amalga oshirilishi natijasi sifar Dunyo yaralibtiki, u doimiy, uzluksiz o'zgarishda. Qadimgi donishmandlar aytganidek, "abadiy harakat bu-abadiy o'zgarishdir". Ya'ni doimiy o'zgarishlar- abadiyat qonuni. Hayotdagi va insonlar tafakkuridagi o'zgarishlar, ularning ezgu niyatlari va orzu-umidlari-taraqqiyotning, yangilanish va modernizasiyalashuvning harakatlantiruvchi kuchi, zaruriy shartidir.[1]

Shiddat bilan rivojlanayotgan ayni paytda ilm-fan, texnika-texnologiya, madaniyat, ta'lim, ishlab chiqarish va boshqa sohalarida tub o'zgarishlar amalga oshirilmoqda, islohotlarning sur'atlari tobora jadallashmoqda. Shuning bilan birga axborotlar asri talablariga muvofiq o'zgarayotgan turmush tarzimiz ehtiyojlari jamiyat oldiga ko'plab yangidan-yangi vazifalarni amalga oshirish lozimligini ko'rsatmoqda. Bu muammolarga qarshi turish uchun bizga samarali echim va chora-tadbirlar suv va havodek zarur bo'lib bormoqda. Har qanday xalqning, jamiyatning a'zolari ongida

FALSAFA

ma'naviy-madaniy saviya va salohiyatni yuksaltirish, ularning dunyoqarashini va tafakkurini o'stirish bugungi kunda mamlakat rivojida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bu masala xususida Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni ta'kidlaydilar: "Jamiyatimizning ma'naviy asoslarini mustahkamlash, madaniyat sohasini rivojlantirish, ilmiy-ijodiy tashkilotlar, muhtaram ziyolilarimiz faoliyatini qo'llab-quvvatlash ham biz uchun ustuvor yo'nalishlardan biri bo'ladi.[2] Haqiqatan biz qadimiy va boy tarixga ega xalqmiz. Ayniqsa jadid bobolarimiz Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqanlari, ularning yuksak maqsadlar yo'lidagi mardonavor kurashi va fidoyiliklari barcha uchun namunadir.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Inson va jamiyat ma'naviy imkoniyatlari bilan ijtimoiy jarayonlar o'rtasida muayyan aloqadorlik mavjudligi haqidagi falsafiy fikr yangi emas. Bu borada J.Rumiy, G. Gegel, I.Kant[3] kabi mutafakkirlarning mulohazalarini eslashning o'zi kifoya. Biroq XX asr oxiri va XXI asr boshlarida faylasuf, sotsiolog va psixologlar mazkur mavzuni faol o'rgana boshladilar. Masalan, G.Markuze o'z asarida inson ma'naviy olamidagi o'zgarishlarning ijtimoiy taraqqiyot xarakteriga ta'sirini talqin etadi. E.To'ffler kishilar ruhiy holatidagi evrilishlar jamiyat ma'naviy borlig'ini butkul o'zgartirayotganini ochib beradi. P.Byukenen XX asr oxiriga kelib G'arb jamiyatlaridagi ayrim tendensiyalar ma'naviy salohiyatni o'zgartirganini, bu esa taraqqiyot sur'atlarida o'z izini qoldirayotganini tahlil qiladi.[4]

Hozirda zamon har qachongidan ham tez sur'atlar bilan rivojlanmoqda. Xalqimiz turmushi farovonligi oshgani sayin aholimizning talab va ehtiyojlari ham ortib borishi tabiiy hol. Insoniyat tarixiga nazar solinsa, barcha davlatlarning yuksalishiga o'zining ma'naviy birligi va milliy g'oyasi orqali erishganiga guvoh bo'lasiz. Haqiqatda ma'naviyat- jamiyat taraqqiyotini belgilovchi eng asosiy mezonidir. Chunki insonlarning ma'naviyati yuksalgandagina jamiyatda tinchlik va rivojlanish bo'ladi. Ma'naviy yuksalish- bu insonlar va jamiyatning ma'naviy, axloqiy hamda intellektual jihatdan rivojlanishini nazarda tutuvchi jarayon bo'lib, uning asosida inson qadr-qimmat, axloqiy qadriyatlar va madaniy-tarixiy meros yotadi.

MUHOKAMA

Qaysi mamlakatda taraqqiyotning maqbul sur'atlari saqlab turilgan bo'lsa, o'sha joyda fuqarolar turmushi ham izchil farovonlashib boradi, yurt yorug' kelajak sari ildamlaydi. Aksincha, ijtimoiy rivojlanishdagi har qanday turg'unlik darhol fuqarolar turmushi darajasida, kelajak maqsadlariga erishish imkoniyatlarida o'z aksini topadi. Binobarin, Yangi O'zbekistonni barpo etish, ijtimoiy taraqqiyot sur'atlarini ta'minlamoq, buning uchun esa jamiyatda mavjud bo'lgan barcha salohiyatlardan oqilona foydalanmoq darkor. Mamlakatni isloh etishga qaratilgan strategiyada bu aksioma e'tibordan chetda qolgani yo'q, albatta. Biroq ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashda jamiyat ma'naviy salohiyatining ayriча o'rni bor.

Ayni payda, davlat *jamiyat ma'naviy salohiyatini boshqarish imkonini beradigan samarali mexanizmga* ham ega bo'lmog'i darkor. O'zbekistonda bunday mexanizm mavjud emas, deya ta'kidlashga hech qanday asos yo'q. Ma'naviy salohiyatning yuksalishi jarayoni turli vazirliklar, idoralar, boshqarmalar tomonidan boshqariladi, albatta. Lekin bu borada yagona siyosiy, g'oyaviy, uslubiy markazning mavjud bo'lishi ushbu jarayon samarasini yanada oshirgan bo'lardi.

O'zbekistonda ma'naviy salohiyatni ijtimoiy taraqqiyot omiliga aylantirish uchun uni yuksaltirish borasidagi davlat siyosatining asosiy vazifalarini, boshqarish mexanizmlarini aniqlab olishning o'zi kifoya emas. Ayni paytda jamiyat ma'naviy salohiyatidan oqilona foydalanish istiqbollarini ham belgilab olish kerak. Ayniqsa, Yangi O'zbekistonni barpo etishni maqsad qilgan, ma'rifiy jamiyat qurishga, Uchinchi Renessans poydevorini yaratishga yo'naltirilgan keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilayotgan davrda mavjud ma'naviy salohiyatdan foydalanishning zaruriyati va imkoniyatlarini aniqlab olish muhim ahamiyatga ega.[5]

Mamlakatimizda ma'naviy salohiyatni yuksaltirish sohasidagi ishlarni yangi bosqichga ko'tarish soha vakillari zimmasidagi mas'uliyatni yanada oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi. Bu borada yurtimizda rivojlanish strategiyalari asosida qator ishlar amalga oshirildi. Istiqboldagi dolzarb vazifalarni aniqlashdan oldin amalga oshirilgan islohotlar va ularning natijadorligini analiz qilish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz. Chunki mamlakatimiz ahli, ayniqsa, yoshlarning dunyoviy, ilmiy, axloqiy salohiyatini yuksaltirish, ularda vatanga sadoqat, mafkuraviy, g'oyaviy va diniy aqidaparastlikning har qanday ko'rinishlariga qarshi immunitetni shakllantirish, o'lkamizda ijtimoiy-ma'naviy va siyosiy muhitni yanada sog'lomlashtirish, huquqiy demokratik davlat asoslarini mustahkamlash maqsadida muhim chora-tadbirlar olib borilmoqda. Jamiyat hayotining ma'naviy-

ma'rifiy asoslarini mustahkamlash, milliy g'oya tamoyillarini hayotga joriy etish, yosh avlod qalbida kelajak uchun daxldorlik va mas'uliyat hissini oshirish, yot g'oyalarga qarshi mafkuraviy immunitetni kuchaytirishga yo'naltirilgan targ'ibot tizimi shakllandi.

Ma'lumki, O'zbekistondagi ijtimoiy yangilanishlarning ustuvor yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

- “har bir insonga o'z salohiyatini ro'yobga chiqarishi uchun munosib sharoitlarni yaratish;
- barqaror iqtisodiy o'sish orqali aholi farovonligini ta'minlash;
- suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish;
- qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish;
- “xavfsiz va tinchliksevar davlat” tamoyiliga asoslangan siyosatni izchil davom ettirish”. [6]

Binobarin, jamiyat ma'naviy salohiyatidan ana shu yo'nalishlardagi maqsadlarni hal qilishda foydalanish mumkin.

NATIJALAR

Xulosa qiladigan bo'lsak, jamiyat ma'naviy salohiyatini ijtimoiy taraqqiyotni jadallashtiruvchi omilga aylantirish uchun undan oqilona foydalanish istiqbollarini belgilab olish kerak. Bu istiqbollar amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari bilan hamohang bo'lmog'i lozim. Shu nuqtayi nazardan fikrlaganda, bugungi kunda jamiyat ma'naviy salohiyatidan Yangi O'zbekistonni barpo etish strategiyasining asosiy g'oyalari barqaror iqtisodiy o'sish orqali daromadi o'rtachadan yuqori bo'lgan davlatlar qatoridan o'rin olish; aholi talablariga va xalqaro standartlarga to'liq javob beradigan ta'lim, tibbiyot va ijtimoiy himoya tizimini tashkil qilish; aholi uchun qulay ekologik sharoitlarni yaratish; xalq xizmatidagi adolatli va zamonaviy davlatni barpo etish; mamlakatning suvereniteti va xavfsizligini kafolatli ta'minlashda kengroq foydalanish kerak bo'ladi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoyev Sh.M. Hozirgi zamon va Yangi O'zbekiston. -Toshkent: “O'zbekiston” nashriyoti, 2024. –34 b.
2. 20.12.2022. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлис ва Ўзбекистон халқига Мурожаатномаси <https://president.uz/uz/lists/view/5774>
3. Румий Ж. Маънавий маснавий.- Т.:Шарқ, 1999; Гегель Г.В.Ф. Феноменология духа.- М.:Эксмо, 2007; Кант И. Антропология с практической точки зрения.// Соч. В 6-и томах.Т.6.- М.: Мысль, 1966.- С.349-588.
4. Marcuse H. One-Dimensional Man.- Boston: Beacon, 1964; Toffler А. Future Shock.- Random House Publishing Group, 1984; Buchanan P.J. The death of the west.- N-Y: St.Martin's Griffin, 2002.
5. Jabborova S.S. Ma'naviy salohiyat- ijtimoiy taraqqiyot manbai. -Buxoro: “Kamolot” nashriyoti, 2025. -17 b.
6. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 11.09.2023 yildagi PF-158-son “O'ZBEKISTON — 2030” strategiyasi to'g'risida” Farmoni // <https://lex.uz/ru/docs/-6600413>
7. Мирзиёев Ш.М. Янги Ўзбекистон стратегияси.- Т.:Ўзбекистон, 2021.
8. Jabborova S.S. Islohotlarning muhim yo'nalishi- ma'navit yuksaltirish siyosatining asosiy vazifalari. Ilm sharchashmalari. Ilmiy-nazariy, metodik jurnal. 2025 5/2. -56-58 b.
9. Jabborova S.S. Jamiyatda ma'naviy salohiyatni rivojlantirish – yurt kelajagini belgilab beruvchi muhim omil. // Tafakkur ziyosi. – Jizzax, 2023. -№2. – B.186-190. (09.00.00; №22)
10. Jabborova S.S. O'zbekistonda jamiyatning ma'naviy salohiyati va uning ijtimoiy taraqqiyotni ta'minlashdagi roli. // FarDU. Ilmiy xabarlar – Fargona, 2023. - №4. – B.64-68. (09.00.00; №31)